Gulov Sadritddin Niyazovich 1964-yil 9-avgustda Buxoro shahridagi Bo'yrobofon guzarida tug'ilgan. 1981-1985-yillarda Buxoro davlat pedagogika instituti musiqa fakultetida tahsil olgan. Sadritddin Gulov yillar davomida xalq musiqa merosini o'zlashtirishga harakat qilib, ajoyib, rangbarang qo'shiq, ashula va kuylar yaratgan. Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik kafedrasida o'qituvchi bo'lib ishlab kelmoqda.

Asarlari: “Vatan” (Zikrillo Ne'mat so'zi), “Pari Misol” (Ahmad Samadov so'zi), “Ona” (Niholiy so'zi), “Guli surx” (I.Qosimiy so'zi), “Ishq Dardi” (Hofiz Xorazmiy so'zi), “Duxtari G'urbun” (Niholiy so'zi), “Biyo, ey do'st” (Sh.Sulaymon so'zi), “Yangi O'zbekiston” (Abdunabi Hamro so'zi). **G'ijjak uchun yaratgan kuylari:** “Nihol”, “Go'zal”, “Xumorim”, “Xayol”, “Buxoro”, “Istiqlol”,”Dilbaro”, “Bevafo Yor”.

Muallif O'zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati Kompozitor va Bastakorlar uyushmasi a'zosi.

ISBN 978-9943-7078-6-3

S.N. Gulov

XALQ CHOLG'ULARIDA IJROCHILIK

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Gulov Sadritdin Niyazovich

XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK

Respublika oliy o‘quv yurtlari bakalavriatining 5150700 — Cholg‘u ijrochiligi (turlari bo‘yicha) yo‘nalishi talabalari uchun
o‘quv qo‘llanma

“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2021

UO'K 78(075.3)
85.3я72
G 99
Gulov, Sadritdin Niyazovich
Xalq cholg‘ularida ijrochilik [Matn] : o‘quv qo‘llanma / S.N. Gulov . -Buxoro: OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021.-136 b.

КБК 85.3я72

Ushbu o‘quv qo‘llanma 5150700- cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, g‘ijjak ijrochiligi xususidagi bilimlar o‘rganiladi hamda usuliy sharhlar asosida ijrochilik dasturini kengaytirish uchun bir qator yangi talqindagi musiqiy asarlar DTS ga asoslangan holda keltirilgan.

Shuningdek BMSM, ixtisoslashgan san’at maktablari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undan bugunda faoliyat ko‘rsatayotgan havaskorlik ansambllari ham foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:
Olimxo‘ja Karimov, BuxDU, San‘atshunoslik fakulteti, “Musiqa ta’limi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Taqrizchilar:
Said Boltazoda Saidiy, NavDPI, “Musiqa ta’limi” kafedrasi professori, s.f.n.
Xalqaro “Antiquye World” ilmiy Akademiyasi akademigi
Sanoqul Do‘stov, BuxDU, San’atshunoslik fakulteti “Musiqa ta’limi” kafedrasi professori, p.f.n.

Данное пособие предназначено для студентов по специальности 5150700 - Инструментальное исполнение (по видам), в нем изучаются знания исполнения гиджак и предлагается ряд новых интерпретаций музыки, основанных на Государственных стандартах образования, для расширения программы исполнения.

Кроме того, он может быть использован в качестве учебного пособия в детских школах музыки и искусство, а также в специализированных школах искусство и любительских ансамблях.

Главный редактор:
Олимхуджа Каримов, старший преподаватель кафедры музыкального образования Бухарского государственного университета, факультета искусствоведения
Рецензенты:
Саид Болтазода Саидий, НавГПИ, профессор кафедры “Музыкального образования”, академик международного академии наук “Antique World”
Санокул Дустов, к.п.н. профессор кафедры “Музыкального образования” факультета искусствоведения Бухарского государственного университета

O‘quv qo‘llanma O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 1-martdagi 110-sonli buyrug’iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan. Guvohnoma 110-81.

ISBN 978-9943-7078-6-3

This manual intended for the students in the specialty of 5150700- Instrumental Performance (by types), it studies the knowledge gijjak performance and a number new interpretations of music based on State Standards of Education is provided to expand the program of performance.

Besides, it can be implemented as a textbook in the schools of art and music for children and specialized art schools and amateur ensembles can utilize it as well.

Chief Editor:

Olimkhudzha Karimov, Senior Lecturer, Department of Music Education, Bukhara State University, Faculty of Art History.

Reviewers:

Said Boltazoda Saidiy, NavSPI, The professor of the department of the Music Education, an academician of the international scientific academy "Antique World"

Sanokul Dustov, Bukhara State University, Associate Professor of the Department of Music Education of the Faculty of Art History, Ph.D.

Annotatsiya

"Xalq cholg'ularida ijrochilik" fani yakka ijrochi, cholg'u o'qituvchisi sifatida mustaqil kasbiy ish faoliyat ko'rsatadigan, yuqori musiqa ijrochilik mahoratiga ega kadrlarni tayyorlash uchun muhim o'rin tutadi.

Mazkur fan yuzasidan qo'yilgan asosiy maqsad – talaba cholg'u ijrochiligi, yakkaxon ijrochilik, ansambl, orkestr cholg'ulari, jahon va o'zbek musiqa merosi haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim.

Аннотация

Предмет "Исполнение на народных инструментах" играет важную роль в подготовке высококвалифицированных музыкантов, способных работать самостоятельно в качестве солистов и учителей инструментов.

Основная цель курса - дать студентам представление об инструментальном исполнении, сольном исполнении, ансамбле, оркестровых инструментах, мировом и узбекском музыкальном наследии.

Annotation

The Uzbek Department of folk instrument Performance plays an important role in the training of highly qualified musicians who are able to work independently as soloists and instrument teachers.

The main goal of the course is to give students an idea of instrumental performance, solo performance, ensembles, orchestral instruments, world and Uzbek musical heritage.

PEDAGOGIK ANNOTATSIYA

O‘quv fani nomi: “Xalq cholg‘ularida ijrochilik”

O‘quv qo‘llanma nomi: “ Xalq cholg‘ularida ijrochilik”

Mazkur o‘quv qo‘llanma: 5111000 – kasb ta’limi 5150700 – cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, milliy musiqiy qadriyatlarimizni chuqur o‘rganish, milliy xalq kuylarini yuksak badiiy did bilan ijro etishga alohida e’tibor beriladi. Dars jarayonida ta’limning tarbiya bilan mushtarakligiga erishish maqsadida talabalarga yuksak axloq, milliy ong, milliy tuyg‘u, milliy iftixor, Vatanni sevish va ardoqlash hislarini tarbiyalab borish ham asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta’limdagi o‘rni

Har tomonlama kamol topgan yuksak ma’naviyatli, zamonaviy talablariga javob beradigan yuqori malakali, san’atimiz rivojiga munosib hissa qo‘shishga qodir, ma’rifiy, axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash o‘ta muhim ahamiyatga ega. Cholg‘u ijrochiligi fani, sozandachilikning san’atimiz rivojidagi o‘rni, san’atni yuksalishi va unga ta’sir etuvchi omillari kabi masalalarni ham qamrab oladi.

O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

Mazkur fan yuzasidan qo‘yilgan asosiy maqsad - talabalar cholg‘u ijrochiligi jumladan, yakka ijroda, ansambl, orkestr jamoalari ijrosida, jahon va o‘zbek musiqa merosi haqida tushunchalarga ega bo‘lish, ijrochilik mahoratini takomillashtirish, sahnada ijro etish san’atini egallash, yuksak ijrochilik texnikasini mukammal o‘zlashtirish kabi ko‘nikmalar hosil qilishlari ham ko‘zda tutiladi.

Xalq cholg‘ularida ijrochilik fanini o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar:

- talaba iqtidorini rivojlantirishga imkon darajasida harakat qilishi, uning o‘ziga xos jihatlarini to‘la namoyon etishi, kompozitorlar uslubida ixtisoslashuv cholg‘usi ijrochiligiga oid barcha manbalardan foydalangan holda sozandaga saboq berish, milliy ijrochilik uslubining qo‘llay bilish kabi bilim va ko‘nikmalarini namoyish etishi zarur. Qolaversa, musiqa sohasidagi o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida, opera teatri va studiyalar, turli ijodiy kollektivlarda, musiqiy madaniyat muassasalarida ishlash ko‘nikmalarini olishlari zarur.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar:

-professional konsert ijrochilari bo‘lish;
-orkestr (ansambl) artistlari va ularning sahnadagi chiqishlari;
-konsert-ijrochilik ko‘nikmalarini egallash;
-musiqaning shakl tahlilini ochib beruvchi nazariy asoslar haqida tasavvurga ega bo‘lish;
-ijrochilik dasturiga kiritilgan asarlarni o‘zlashtirish;
-notaga qarab o‘qish texnikasi ko‘nikmalarini rivojlantirish;
-turli xil janrdagi asarlarni ijrochilik tahlilini o‘rganish;
-an’anaviy hamda o‘zbek va jahon kompozitorlari ijodiga xos katta va kichik shakldagi xilma-xil janrdagi musiqiy asarlarni yuqori darajada mohirona ijro etishni bilishi va ulardan foydalana olish;
-tanlangan musiqa cholg‘usida chalish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
-mutaxassislik bo‘yicha o‘qituvchilarni tayyorlash;
-ijrochilik mahoratini takomillashtirib borish;
-sahnada ijro etish madaniyatini o‘rganish;
-yuksak badiiy ijrochilikka oid texnika san’atini mukammal o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Asosiy amaliy qism (yakka mashg‘ulotlar) Cholg‘u ijrochiligi (turlari bo‘yicha) ko‘nikmalari

Cholg‘u ijrochiligi nazariyasi va tarixi. Cholg‘u ijrochiligi va cholg‘uning tovush imkoniyatlarini inobatga olish. Tovush hosil qilish va uning turlari. Ijro uslublari to‘g‘risida

mashg‘ulotga ega bo‘lish. Cholg‘u asarlari va ularni o‘zlashtirishga qo‘yiladigan nazariy talablarni bilish. Cholg‘u ijrochiligining o‘ziga xos xususiyatlarini bilish. Cholg‘ular uchun an’anaviy hamda akademik ijro uchun asarlar yaratish tendensiyalarini tushunish. Kompozitorlik ijodiyoti namunalarini bilish.

Ijro ko‘nikmalarini o‘zlashtirish va asarlar tahlili

Ijro ko‘nikmalarini takomillashtirib borish. Texnik mashqlar ustida ishlash. Pozitsiya va applikaturalarga amal qilish. Milliy musiqa namunalarini ijro etish uslublari. Mukammal o‘rganish, musiqiy bezaklar to‘g‘risida tushuncha hosil qilish. Ijro shtrixlarini bilish. Cholg‘u asarlari tahlilini o‘rganish. Musiqiy shakl to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish. Ijrochilik yo‘nalishlari va amaliyotini mukammal o‘rganish.

Ijrochilik mahoratini rivojlantirish

Akademik konsertga tayyorgarlik ko‘rish. Asarlarni mohirona ijro etish ustida ishlash. Cholg‘uda tovush sifatini, tembrini yaxshilash ustida mashqlar qilish. Klassik asarlar bilan birga zamonaviy asarlar ustida ishlash. An’anaviy asarlar ijrosi shuningdek, o‘zbek va jahon kompozitorlari tomonidan yaratilgan asarlarni ijro etish ustida ishlash. Yirik shakldagi (sonata, konsert yoki turkum) asarlarini o‘rganish. Asarlarni yoddan ijro etish. Cholg‘uda tovush hosil qilish sifatini mukammal ijrosi ustida ishlash. Asarlarni badiiy ijro etish darajasiga erishish.

Musiqiy asarlarni sof ijro usullari ustida ishlash

Ijrochilik mahoratini rivojlantirish ustida ishlash. Cholg‘uda tovushni yanada tiniq, ravon ijrosi ustida ishlash. Musiqiy asarlarni yuqori darajada ijro etishda barcha ijro usullaridan foydalanish. Akademik konsertda murakkab asarlarni o‘rganib yuqori natijalarga erishish.

Badiiy asarlarni mustaqil ravishda tahlil qilib o‘rganish

Ijrochilik texnikasini rivojlantirish ustida ishlash. Badiiy asarlarni mustaqil ravishda tahlil qilib o‘rganish. Turli janrda yozilgan asarlarni tanlab, attestatsiya imtihoniga tayyorgarlik ko‘rish. Har xil xarakterdagi asarlarni o‘rganish va ijro qilish. Attestatsiya dasturi bo‘yicha sinovlarga tayyorgarlik ko‘rish.

Notani ravon o‘qish malakasi ustida ishlash

Talabalar oldin egallagan ijrochilik ko‘nikmalarini puxtalashtirish. Ijro uslubini yanada rivojlantirish. Notalarni matndan ravon o‘qish, yaxshi egallash. Notaga qarab matnni aniq, tekis, savodli va erkin ijro etish. Sozanda-ijrochilarning umumiy musiqiy-nazariy bilim doirasini yanada kengaytirish. Notalarni matndan ravon o‘qish tajribasini muntazam ravishda olib borish.

Ko‘nikmalarini mukammallashtirish

O‘zlashtirilgan ijrochilik ko‘nikmalarini mukammallashtirish. Cholg‘uning ijrochilik imkoniyatlarini kengaytirish. Ijrochilik uslublarini yanada kengroq o‘zlashtirish. Talabani mustaqil ravishda mashg‘ulot olib borish ko‘nikmalariga yo‘naltirish. Turli janrda yozilgan asarlarni o‘rganish. Asarlarni yuqori darajada ijro etishda barcha ijro usullaridan foydalanish.

Sahnaviy chiqish va maxsus konsert ko‘nikmalari

Davlat attestatsiyasiga tayyorgarlik ko‘rish. Bitiruvchi kurs talabalarining ijrochilik bo‘yicha dasturini Davlat attestatsiyasiga yuqori darajada tayyorlash, ijro dasturining badiiy jihatlarini yoritish. Mohirona ijro etish darajasiga erishish. Sahnaviy chiqishlar va maxsus konsertlar uyushtirish.

Didaktik vositalar: Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska - xitachi, LCD – monitor, elektron ko‘rsatgich (ukazka). Video - audio uskunalar - video va audio magnitofon, mikrofon, kolonkalar. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD - diskovod, veb - kamera, video ko‘z.

KIRISH

O‘zbek xalqining boy musiqa merosini o‘rganish va uni keng omma ichida targ‘ib qilish ishlari san’atimizning jonkuyar tashabbuskorlari, buyuk siymolar va olimlari ahamiyatida rivojlanib kelganidek, mohir ijrochilari zimmasida bo‘lmog‘i zarur. Chunki bizning davrimizgacha yetib kelgan ulkan musiqiy merosning ustozdan shogirdga bevosita o‘tishida tabarruk zotlar ko‘prik vazifasini o‘tash bilan birgalikda o‘zlarining ijodlari bilan ham namuna bo‘lganlar.

G‘ijjak cholg‘usi Markaziy Osiyo xalqlari, xususan o‘zbek, tojik, turkman, shuningdek, kavkaz, ozarbayjon hamda arman xalqlari orasida keng tarqalgan kamoncha bilan chalinadigan torli cholg‘u hisoblanadi. Ilk g‘ijjaklarning kosaxonasi qovoqdan va kokos yong‘og‘i (norjil yong‘oq) dan yasalgan bo‘lib, dastasining o‘rtasi kovak qilib o‘yilgan uzun yog‘ochdan ishlangan. Kosaxonaning ustiga pufak(molning yurak pardasi) yoki baliq teri qoplangan. Dastasi dumaloq bo‘lib, kosaga yaqinlashgan sari ingichkalashtirib ishlangan. Kosaga o‘rnatilgan temir oyoqchani ijrochi tizzasiga qo‘ygan holatda o‘tirib chalgan.

Ilk g‘ijjaklarda uchta tor bo‘lib, bular kvarta intervali bo‘yicha sozlangan. Sozlanishi muqim bir tovushda bo‘lmay, balki ashulachining ovoziga v obasta yoki ijro etiladigan kuyning xarakteriga qarab turlicha bo‘lgan. Shu davrlardagi g‘ijjaklar ovoz hajmi bir yarim oktava oralig‘ida bo‘lgan. XX asrning 20-yillariga kelib sozandalar g‘ijjak ovozini kengaytirish va baland qilish maqsadida unison qilib sozlangan qo‘shtorlardan foydalana boshladilar. G‘ijjak sozi yakka holda va ansambllarda keng foydalanila boshlangan. Kamonchasi ot dumidan ishlanib, chalish vaqtida o‘ng qo‘l barmoqlari bilan tortib turilgan[1]. 1930 yillarga kelib Ashot Ivanovich Petrosyans tomonidan o‘zbek cholg‘ulari takomillashtirilib, g‘ijjakka to‘rtta tor joriy qilindi[2]. Bular skripka singari kvinta intervali oralig‘ida joylashtirildi. Qayta ishlangan g‘ijjak dastasi dumaloq emas, balki, skripka dastasidek yassi qilib ishlangan. Oyoqchasi stulda o‘tirib chalish uchun qulaylashtirilgan[3]. Hozirgi musiqa istilohidagi g‘ijjak sozi xuddi shu zaylda foydalanib kelinmoqda.

O‘zbek xalq milliy cholg‘ulari orasida g‘ijjak sozi – o‘zining mungi, nolishi va inson tovushiga hamohangligi bilan xarakterlidir. Nafaqat, mumtoz kuy-qo‘shiqlarimiz, qolaversa, g‘ijjak cholg‘usida xalqimizning sho‘x navolari, Evropa klassik kompozitorlarining kuy va qo‘shiqlarini ijro etibgina qolmay, balki turli qushlar va hayvonlar ovozini ham ifodalay olish mumkin.

Demak, bundan shuni anglash mumkinki, g‘ijjakning imkoniyatlari benihoya keng. Unda Toshkent-Farg‘ona yo‘lidagi maqomlarni, Xorazm maqomlarini, Buxoro Shashmaqomini butun dardu-nolalarini aks ettirish, o‘zbek hamda jahon kompozitor va bastakorlari tomonidan yaratilgan, o‘ta texnik imkoniyatlar talab qiladigan kuy va mashqlarni me`yoriga yetkazib ijro eta olish imkoniyatiga ega.

Hattoki, qushlarning sayrashi-yu, qo‘y va echkilarning ma’rashi, uy hayvonlarining o‘kirishi-yu, itning hurishi, mushukning miyovi, suvlarning marjon qoyalarga urilib oqishlarigacha, qo‘ying-ki, butun qishloq va shahar ko‘chalarining to‘la ovozlarini aks ettirish mumkin.

Yakka ijrodan farqli o‘laroq ansambl ijrochiligi darslarida o‘quvchilar ansambl bo‘lib chalish, ya’ni birgalikda hamnafas bo‘lib chalish sir-asrorlarini o‘zlashtirib boradi. Bunda sozanda faqat o‘z cholg‘usinigina eshitib qolmasdan, balki boshqa sozlarning tovushini ham eshita olishi hamda umumiy ijroni eshita olish va o‘z cholg‘usining tovushini jamoa ijrochiligiga mos ravishda boshqara olish ko‘nikmalarini o‘zlashtirib boradi. Shu bilan birga faqat o‘z

[1] I.Akbarov, Musiqa lug‘ati, – T.: O‘qituvchi, 1997. 379-b.
[2] А.И.Петросянц, Инструментоведение, – Т.: Ўқитувчи, 1980. – Ст.№.7 – 8.
[3] I.Akbarov, Musiqa lug‘ati, – T.: O‘qituvchi, 1997. 380-b.

sozining ijro imkoniyatlarini chuqur o‘rganib qolmasdan, qolgan barcha sozlarning o‘zigagina xos bo‘lgan tovush, tembr, koloritik hamda ijro imkoniyatlarini ham o‘zlashtirib, o‘rganib boradilar.

E’tiboringizga havola etilayotgan “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” deb nomlangan o‘quv qo‘llanma oliy ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan. Bunda bo‘lajak mutaxassislarning nazariy, ilmiy, amaliy bilimlarini oshirish bilan bir qatorda ularning badiiy, estetik tarbiyasini va musiqiy-emotsional hissiyotlarini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish maqsad qilib qo‘yildi. O‘quv qo‘llanmada sozandaning ijrochilik texnikasini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan shtrixlarni o‘zlashtirish to‘g‘risida ma’lumotlar, gammalar ustida ishlash uslublari, applikaturani to‘g‘ri tanlash, vibratsiya ko‘nikmasi haqida ko‘rsatmalar va musiqiy asarlar ustida ishlash darslar ketma – ketligi tizimi bo‘yicha berildi. Talaba ijrochilik texnikasi yuqori darajada bo‘lishi uchun doim dars tayyorlash jarayonini mazkur mashqlarni ijro etish bilan boshlashni odat qilishi lozim.

O‘quv qo‘llanmada berilgan badiiy asarlar shakl jihatidan tahliliy, nazariy tomondan o‘rganish va o‘rgatish uslublari, ijro etilishida qo‘llaniladigan zarur tavsiyalar bilan taqdim etilmoqda. O‘zbek milliy kuylarini o‘zlashtirish bo‘yicha ijro ko‘nikmalari, bezaklarning nota yozuvida ifodalanishi, ijrosi hamda o‘zbek milliy kuylarida qo‘llanishi zarur bo‘lgan yangi alteratsiya belgilari haqida kerakli ma’lumotlar berilgan.

Demak, aytib o‘tilganidek musiqiy asarlarni har tomonlama sinchiklab, atroflicha, keng qamrovli usulda o‘rganish aynan oliy musiqa ta’limi muassasalarining professor o‘qituvchilari va talabalarining oldiga qo‘yilgan asosiy maqsad desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Mazkur o‘quv qo‘llanmadan Bolalar musiqa va san’at maktabi o‘quvchilari, ixtisoslashgan maktab internati hamda Oliy ta’lim muassasalari musiqa ta’limi yo‘nalishi bakalavr talabalariga g‘ijjak cholg‘usini mustaqil o‘zlashtirishlarida qo‘l kelishi mumkin.

1-MAVZU. XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK
Cholg‘u ijrochiligi nazariyasi va tarixi
(Buyuk allomalar sharhida “G‘ijjak” cholg‘usining tarixi)

Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san’ati tajribasi asosida shakllangan bo‘lib, ular o‘z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o‘rni va ahamiyati haqida atroflicha ma’lumot berganlar. Abu Nasr Farobiyning (873-950) “Katta musiqa kitobi” (Kitob al-musiqa al-kabir), Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) “Shifo kitobi” (Kitob ush-shifo), “Osori muntaxab” nomli qomusiy asaridagi “Musiqa haqida risola”(Risolai musiqiy)si, Al-Xorazmiyning (X asr) “Bilimlar kaliti”, Safiuddin al-Urmaviyning (1216-1294) “Oliyjanoblik haqida kitob” yoki “Sharafiya” kitobi, Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) “Musiqa haqida risola” kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg‘ulari haqida muhim ma’lumotlar bayon etilgan. Bulardan Safiuddin al-Urmaviyning asarlaridagi eng katta yutug‘i lad (modus) larning mukammal tizimini ishlab chiqqanligidadir.[4]

Abu Ali Ibn Sino “G‘ijjak” cholg‘usining kosaxonasi qo‘polligini va dastasini beso‘naqayligini kuzatib, kosaxonasini “noskadi”ga almashtirgan va katta cho‘mish dastasini unga o‘rnatib ajoyib kuylarni yaratgan va natijada yangi hozirgi g‘ijjakga o‘xshash ajoyib cholg‘u bunyod bo‘lganligi haqida sharq hikoyatlari mavjud.

Abdulqodir Marog‘iy ibn G‘oyibiyning (XV asr) “Musiqa haqida ohanglar to‘plami” (Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy) risolasida musiqa haqidagi ta’limotni kamoncha, yetti torli g‘ijjak kabi bir turdagi musiqa cholg‘ulari borligi haqidagi ma’lumotlar bilan boyitdi. Demak sharqda keng tarqalgan “Manzur” cholg‘usini nazarga tutgan deyin o‘rinlidir, sababi “manzur” da haqiqatdan ham 6-7 torlari mavjud bo‘lgan. Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg‘ularini o‘rganish sohasida ham tarixiy qimmatga ega.

Marog‘iyning XIV asrlarda yaratilgan “Kanz al-Tuhaf” risolasida g‘ijjak va rubob haqida qiziqarli ma’lumotlar mavjud. Masalan; Marog‘iy o‘zining risolasida g‘ijjak yasash usuli (texnologiyasi) haqida ma’lumot beradi. Olimning tasdiqlashicha, ipak yoki pay torlar jez torlarga nisbatan ancha yaxshi va mayin ohang chiqarish mumkin ekan.

Darvish Ali Changiy ta’rif bergan cholg‘ulardan yettitasi; tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qobuz, g‘ijjak o‘sha davrda eng keng tarqalgan cholg‘ular edi. Darvish Ali Changiyning ma’lumotlari – musiqa amaliyotida dastlab ansamblda uyg‘un kolorit hosil qiladigan torli-noxunli, torli-kamonchali cholg‘ular qo‘llanilganligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi.

O‘z davrining mohir g‘ijjakchisi Shoh Quliy G‘ijjakkiyni Darvish Ali o‘z asarlarida mashhur cholg‘uchi va juda ko‘p cholg‘u kuylarini yaratgan benazir san’atkor sifatida tilga oladi.[5] Darvish Alining bayon etgan ma’lumotlari yana shunisi bilan qimmatliki, u qayd etgan cholg‘ularning kattagina qismi (nay, surnay, chang, qonun, rubob, tanbur, g‘ijjak, qobiz, doyra, nog‘ora, ud) Markaziy Osiyoning O‘zbekiston, Tojikiston va boshqa qardosh respublikalarda shuningdek, Ozarbayjonda bizning kunlargacha saqlanib keldi va u takomillashmoqda. Ushbu musiqa cholg‘ulari uzoq vaqt mobaynida o‘zbek xalqining turmush tarzida mustahkam o‘rin olib, uning madaniy hayotida keng qo‘llanib kelindi. Shunday ekan, bu cholg‘ularni o‘zbek xalq cholg‘ulari, deb atash o‘rinlidir. Endi shu o‘rinda, o‘zbek xalq musiqasi, folklorshunoslik hamda orkestrlarning tashkil topishi va ularda g‘ijjak sozining tutgan o‘rni haqida so‘z yuritamiz.

1917- yildagi to‘ntarishdan keyin o‘zbek musiqa san’ati jadal va jo‘shqin taraqqiy qila boshladi. Birinchi o‘n yillikdayoq musiqa ta’limi, folklorshunoslik, ijrochilik san’ati sohalarida muayyan yutuqlarga erishildi.

Musiqa o‘quv yurtlari – Toshkentdagi Turkiston Xalq konstervatoriyasi (1918) va uning Samaqanddagi, Farg‘onadagi (1919), Buxorodagi (1920) filiallarida katta ishlar amalga oshirildi. Unda asosan o‘zbek hamda yevropacha musiqa cholg‘ulari (fortepiano, skripka va damli cholg‘ulari)ni chalish o‘rgatilar edi. Bu musiqa bilim yurtlari tom ma’nodagi konservatoriya

[4] G’,M.Xudoyev. G’ijjak cholg’usi ijrochilik an’analari, Toshkent,”ma’rifat” nashriyoti;,-2014.
[5] O’sha asar.14-18 bb.

bo‘lmasada, biroq, o‘tgan davr musiqa madaniyati ilmini o‘rganish imkoniga ega bo‘lmaganlarga sodda musiqa nazariyasi ilmi hamda ijro san’atidan saboq berilar edi. Shu tufayli yosh respublikaning ko‘pgina shaharlarida musiqa havaskorligi keng quloch yoydi.

G‘ijjak musiqa cholg‘usi haqida turli man’balarda har xil ma’lumotlar berilgan. G‘ijjaklar dastlab bir torli, keyin ikki va uch torli hozirgi kunda esa to‘rt torlidir. Ozarbayjon musiqashunos olimasi Saodat Abdullayeva o‘zining “Музыкальные инструменты Азербайджана”. Баку. 1972. Bu kitobining 16 va 17 sahifalarida «Kemancha» va unga oiladosh «chegane» musiqa cholg‘ulari haqida ma’lumot bergan. Fayzullo Karomatov o‘zining musiqa cholg‘ulari haqida yozgan kitobida “Boburnoma” asari haqida ma’lumot berib, bu asarda Muhammad Udiy g‘ijjakka uchinchi torni toqqanligi haqida ma’lumot beradi. (Ф.Кароматов. Узбекская инструментальная музыка. Ташкент. 1972. 110 s.).

O‘zbekistonda g‘ijjak va qubuz, Eron va Kavkaz xalqlarida “kemancha” nomlari bilan va unga oiladosh Hindiston, Pokiston, Afg‘onistonda “dilrabo”, Tojikistonning Ko‘lob, Tog‘li Badaxshon Avtonom viloyatida “jig‘ak” (g‘ijjak) musiqa cholg‘ulari mavjud. 1937 - yilda Moskva shahrida o‘tkaziladigan o‘zbeklarning birinchi dekadasiga bag‘ishlab Ozbekistonda juda ko‘p milliy musiqa cholg‘ulari xalq ustasi O‘zbekistonda Xizmat ko‘rsatgan San’at arbobi Usto Usmon Zufarov tomonidan qayta tayyorlanib, jumladan uch torli tanbur va g‘ijjaklarga yana bir tor taqilib, ular to‘rt torli bo‘lgan.

Cholg‘uda ijro mahoratini shakllantirish

Cholg‘u ijro mahoratini egallashda avvalo to‘g‘ri o‘tirish, cholg‘u sozini to‘g‘ri tutish, tovush chiqarish madaniyatini egallab borish, ijro harakatlarini to‘g‘ri shakllantirish hamda jamoaviy ijro qoidalariga to‘liq rioya etishni nazarda tutadi:

- ijro paytida gavdani shunday tutish lozimki, toki u ijrochining barcha harakatlari uchun qulay va tashqi ko‘rinishi chiroyli bo‘lsin;
- suyanchiqqa suyanmasdan, o‘rindiqning yarmida o‘tirish odat qilinadi, sozandalarning chap oyoqlari oldinroq o‘ng oyoqlari esa orqaroq joylashadi;
- o‘ng qo‘lning to‘g‘ri joylanishiga, ijro harakatlarining erkin bo‘lishiga erishiladi;
- chap qo‘l soz dastasini siqmasligi (rubob, afg‘on rubobi, soz, g‘ijjak, dutor sozlarida), qo‘l kafti dastaga tegmasligi, erkin bo‘lishiga harakat qilinadi;
- sozandalar kuyni boshlashda diqqat bilan o‘tirishlari, boshlovchi sozanda yoki doiraning auftaki bilan birgalikda boshlashlari zarur;
- kuyni tamomlashda ham xuddi shunday doira usuliga muvofiq yoki umumiy ansamblning bir nafasda tamomlashiga diqqatni qaratish lozim;
- ansambl ijrochiligida jamoaviy ijro madaniyatiga rioya qilish, ijro paytida diqqat bilan o‘tirish nafaqat o‘z sozi tovushi, balki umumiy ansambl tovushini va shunga mos ravishda o‘z sozi tovushini nazorat qilib borish lozim;
- ijro uchun qulay va to‘g‘ri holatni tanlash, qo‘llarni erkin tutish, tovush chiqarish madaniyatini to‘g‘ri o‘zlashtirib borish har bir soz ijrosi uchun umumiy talablar mazmuniga kiradi.

Cholg‘u sozlarini sozlash

Cholg‘u sozini aniq tovush manbayiga masalan, kamertonga yoki to‘g‘ri sozlangan fortepiano tovushiga sozlash tavsiya etiladi. Ansamblda esa cholg‘ular odatda nay yoki chang cholg‘usiga sozlanadi. Dars boshlanishidan yoki biror-bir konsertga chiqishdan oldin ansambldagi cholg‘u sozlarini har birini toza qilib sozlash tufayli butun ansambl unison sozining sofligiga erishiladi.

Cholg‘u sozlarini dastlabki mashg‘ulotlarda musiqa rahbarining o‘zi sozlab beradi va sekin-asta shogirdlarini ham o‘z sozlarini mustaqil sozlashga o‘rgatib boradi. Ma’lumki o‘zbek xalq cholg‘ularining deyarli barchasi (puflab chalinadigan sozlardan tashqari) teri parda bilan qoplangan yoki yog‘och qopqoqli bo‘lib, simlar xarrak orqali o‘tkaziladi.

Shuning uchun ham cholg‘ularni sozlash jarayonida torlar tagiga qo‘yilgan xarrakning to‘g‘ri joylashishiga alohida e’tibor berish zarur. Soz avval ochiq torda hosil qilinib keyin oktava pardasi bosilib uning aniq sozlanganligiga ishonch hosil qilinadi. Agar tovush sof oktavada

eshitilsa, bu xarrak to‘g‘ri joylashganligidan dalolat beradi. Torni bosib chalganda ochiq parda oktava pardasidan baland eshitilsa xarrak o‘rnashgan joyi tovush xonasidan uzoqlashtiriladi yoki aksincha, torni bosganda tovush oktavadan past sadolansa, xarrak tovush xonasi tomonga suriladi, natijada ochiq tovush oktava tovushi bilan bir xilligiga erishiladi. Birinchi ochiq tovush tiniq sozlanishiga erishilgach, qolgan torlar ham shu tovushga nisbatan aniq qilib sozlanadi. Barcha sozlar aniq sozlanishiga erishilgandagina ansamblning umumiy sozini ham tiniq unison eshitilishiga erishiladi.

Xalq cholg‘ularida nota tizimi bo‘yicha o‘qitish

O‘quv yurtlarida nota tizimi bo‘yicha ta’limning joriy etilishi. Milliy cholg‘u ustaxonalarining faoliyati. 30-yillar o‘zbek musiqa madaniyatining o‘sish davri. Toshkentda birinchi musiqa oliy o‘quv yurtining tashkil qilinishi. O‘zbek davlat filarmoniyasi va nota tizimi bo‘yicha ijro etuvchi o‘zbek xalq cholg‘u orkestrining tuzilishi. Toshkent davlat konservatorisida “Xalq cholg‘ulari” bo‘limi va fakultetning ochilishi. Milliy musiqa cholg‘ulariga bo‘lgan talab va ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yilishi. Ko‘p ovozli milliy cholg‘u jamoalarining faoliyati, turli cholg‘ular uchun maxsus yozilgan asarlarning paydo bo‘lishi.

Fortepiano jo‘rligida ijro etish

Musiqa asarini o‘rganishda dutor partiyasi bilan birgalikda ijro etiladigan fortepiano partiyasini puxta o‘rganish zarur. Fortepiano bilan birga ijro etishni musiqa asarini o‘zlashtirish jarayonida boshlagan ma‘qul. Shunda ijrochi o‘z partiyasini o‘zlashtirish bilan bir qatorda fortepianoda ijro etiladigan partiyani ham o‘ziga singdirib boradi. Ba’zi sozandalar o‘z partiyalarini oxirigacha o‘zlashtirib bo‘lganlaridan keyingina fortepiano bilan birgalikda ijro eta boshlaydi. Bu hol cholg‘uchi uchun birmuncha qiyinchilik tug‘diradi.

Cholg‘u va fortepiano ijrosi uchun yaratilgan musiqa asarlarini kuzatsak, unda quyidagi o‘xshashliklarni uchratishimiz mumkin. Ba’zi musiqa asarlarida fortepiano cholg‘uchi (solist)ga jo‘r bo‘lish vazifasini bajarsa, boshqa musiqa asarlarida cholg‘u bilan fortepianoning partiyalari bir-birga teng va ma’lum darajada mustaqil xarakterga ega bo‘ladi. Birinchi holda kuyni boshqarib borish asosan cholg‘uchi (solist)ga yuklatilgan bo‘lib, fortepiano faqat jo‘rlik (akkompanement) vazifasini o‘taydi. Bunda solist ijro etayotgan kuy mustaqil, ijrosi fortepianosiz ham ma‘lum darajada tugallangan bo‘ladi. Bunday musiqa asarlari o‘zining tuzilishi bo‘yicha nisbatan oddiy bo‘lib, ulardan ta’limning boshlang’ich davrlarida foydalanish mumkin. Lekin bundan o‘quvchi sozanda fortepiano partiyasiga e‘tibor bermasa ham bo‘laveradi, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Bunday musiqa asarlarini ijro qilish paytida o‘quvchi fortepianoda ijro etilayotgan akkordlar va ritmik shartlarni o‘z ijrosi bilan birgalikda eshita olishi lozim.

O‘zbek xalq cholg‘uchilarida ijroni o‘rganayotgan yosh sozandalarda fortepiano bilan birgalikdagi ijro paytida ko‘proq uchrab turadigan kamchiliklardan biri musiqa asari ijrosini fortepiano bilan bir vaqtda boshlay olmaslikdir. Bu paytda o‘quvchining diqqati tamomila o‘zining ijrosiga qaratiladi va natijada fortepiano jo‘rligi solistning ijrosi bilan bir vaqtga to‘g‘ri kelmay qoladi. Ijroni fortepiano bilan birgalikda boshlash ko‘nikmasini shakillantirishda musiqa asarining birinchi tovushi boshlanishdan oldingi harakat hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Buni asarning boshlanishidagi dirijorning qo‘l harakati (auftakt)ga o‘xshatish mumkin.

Musiqa asari davomida cholg‘uchi partiyasida ma‘lum miqdorda pauzalar uchrab turadi. Bunday paytda fortepianodagi ijro odatda davom etadi. O‘quvchi pauzalarning necha taktligini eslab qolishoi bilan bir qatorda o‘z ijrosining qachon boshlanishini ham puxta bilib olishi kerak. Bunda pauza davomidagi fortepiano ijrosini to‘la anglab olishi yaxshi natija beradi.

Bundan tashqari, musiqa asaridagi asosiy kuyning yo‘nalishini aniqlab olish fortepiano jo‘rligida ijro etishda asosiy vazifalardan biridir. Ma‘lumki, har bir musiqa asari ma‘lum kuy (ohang) asosida qurilagan bo‘ladi. Mana shu kuy fortepiano partiyasida yoki solist partiyasidaligini ajrata bilish konsertmeyster bilan chalish vaqtida ijroning to‘laqonli bo‘lishiga yordam beradi.

Fortepiano partiyasini yuzaki bilish cholg‘uchi uchun yetarli emas. Fortepiano partiyasi solistning partiyasi bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, musiqa asarining buzilmas kompozisiyasini

tashkil etadi. Shuning uchun haqiqiy ijro ulardan ansambl qonun-qoidalariga bo‘ysungan holda katta mehnatni talab qiladi. Cholg‘uchining fortepiano bilan birgalikdagi ijrosi qanchalik o‘z vaqtida boshlansa, musiqa asarini o‘zlashtirilishi shunchalik sifatli va tez bo‘ladi.

Sahnada ijro etish ko‘nikmasi

Talaba tomonidan to‘la o‘zlashtirilgan musiqa asari pirovard natijada sahnada ijro etiladi. Bunga qanday tayyorgarlik ko‘rish kerak? O‘quvchining sahna ijrosiga birinchi navbatda o‘qituvchilar katta e’tibor va ehtiyotkorlik bilan yondashishi kerak. Asarni faqat yod olish sahna ijrosi uchun yetarli emas, uni tomoshabinga tushunarli tarzda yetkazish kerak. Shu sababdan o‘qituvchilar bu ishda o‘quvchilarga yaqindan yordam berishlari, sahna ijrosi paytida ularning xotirjam bo‘lishlari uchun zamin yaratishlari lozim. O‘quvchining talabga javob bermaydigan sahna ijrosini ba‘zilar haddan ziyod hayajonlanish natijasi deb tushunadi. Albatta, sahna ijrosi paytida nafaqat yosh sozandalar, hatto tajribali, mohir ustalar ham hayajonlanadi. Lekin sahna ijrosida sodir bo‘ladigan kamchiliklarni faqatgina hayajon tufayli desak to‘g‘ri bo‘lmas.

Tajriba guvohlik beradiki, o‘quvchi dars jarayonida musiqa asarini qanchalik puxta o‘rgangan bo‘lsa, sahna ijrosi paytida u shunchalik kam xatoga yo‘l qo‘yadi. Sahna ijrosi paytidagi hayajonlanishning turli ko‘rinishi mavjud bo‘lib, ba’zilari o‘quvchi ijrosiga yordam bersa, boshqalari, aksincha, ijodiy kuchlarga salbiy ta’sir etadi. Ba’zi hollarda hayajonlanishning kelib chiqishiga o‘quvchining o‘zi sabab bo‘ladi, lekin boshqa turdagi hayajonlanish o‘quvchining nazorati va iroda kuchidan chetda bo‘lishi mumkin: sifatsiz cholg‘u, shart-sharoitning noqulayligi, qo‘llarning haddan tashqari sovib ketishi va boshqalar. Hayajonlanishni keltirib chiqaradigan sabablardan qat’i nazar, uning asosida o‘quvchining psixikasiga bo‘lgan ta’siri yotadi. Haddan tashqari hayajonlanishning oldini olish uchun o‘quvchi faqatgina o‘zining shaxsiy tajribasiga suyanishi va o‘z hayajoni sababini to‘g‘ri aniqlashi kerak bo‘ladi.

Hayajonning sababi ko‘p hollarda musiqa asarining o‘quvchi tomonidan yaxshi o‘zlashtirilmaganligida ko‘rinadi. O‘quvchi sahna ijrosi oldidan xuddi shu o‘zlashtirilmagan asar (qism)ning bo‘lajak ijrosini o‘ylab o‘z hayajonini yanada zo‘raytirib yuboradi. Shu sababdan ham sahna ijrosi o‘quvchining ijro mahoratini o‘zlashtirish uchun qilgan mehnatini naqadar to‘gri va sifatli bo‘lganligini aniqlashda ko‘zgu bo‘lib xizmat qiladi.

Sahna ijrosida birinchi navbatda o‘quvchining repertuaridagi qaysi asarni ijro etish to‘gri bo‘ladi? Tajriba shuni ko‘rsatadiki, sahnadagi ijroni o‘quvchi repertuaridagi xotirjam, vazmin xarakterga ega bo‘lgan musiqa asarlari ijrosi bilan boshlagan ma’qul. Bu o‘quvchining o‘z hayajonini yengishiga, fikrlarini bir maqsadga qaratishiga yordam beradi. Lekin ba’zi sozandalar konsertda o‘zlarining chiqishlarini murakkab va jadal tezlikdagi musiqa asarlarining ijrosi bilan boshlaydi. Ular konsertning boshlanishida hali kuchlar sarf bo‘lmasidan, charchab qolmasdan oldin murakkab musiqa asarlarni ijro etish ma‘qul deb tushuntirishadi. Albatta, har bir sozanda bo‘lajak sahna ijrosida oldin o‘z kuch va imkoniyatlarini chamalab, shu asosda ijro etilajak musiqa asarlarining tartibini tuzib olishi kerak. Sahna ijrosidan oldin sozanda nima bilan shug‘ullanishi kerak? O‘z - o‘zidan ma’lumki, musiqa asarini puxta o‘rganib, o‘zida mustahkam ishonch paydo qilgan o‘quvchilargina sahna ijrosidan oldin o‘zlarini xotirjam his qiladi. Sahna ijrosidan bir - ikki kun oldin sozanda o‘z ishonchini yanada mustahkamlashi uchun musiqa asarlarini to‘xtamasdan ijro etib, ba’zi murakkab jumlalarni alohida takrorlashi lozim. Bunda u diqqat- e’tiborini asarning umumiy tuzilishi, uning asosiy yo‘nalishiga qaratib, o‘zini charchatib qo‘ymasligi kerak.

O‘quvchining mustaqil ishlashi

O‘quvchi o‘z o‘qituvchisining ko‘rsatma va fikrlariga ijodkorona yondashgan holda o‘zining shaxsiy munosabatini ijro orqali bildira olishi kerak. O‘qituvchi rahbarligida o‘tiladigan darsning ahamiyati katta, lekin bu ish o‘quvchining mustaqil ishlari muhimligini inkor etmaydi. O‘quvchining mustaqil mashg‘ulotiga sarf bo‘layotgan vaqtini bekor o‘tkazmasligini o‘rganib borish kerak. Buning uchun o‘quvchiga mustaqil mashg‘ulotni qanday tashkil qilish, nimalarga ko‘proq e‘tibor berish kerakligini tushuntirish lozim. Vaqtdan ratsional va unumli foydalanish mustaqil ishlash asosi prinsiplaridan biri bo‘lishi zarur.

Asosiy prinsiplaridan yana biri mashg’ulotning muntazamligidir. Ijroni o‘rgatishning

dastlabki davridan boshlab o‘quvchida muntazam mustaqil ishlash ko‘nikmasini hosil qilish zarur. Odatda muntazamlikka erishish qiyin bo‘lsa ham, bunday mashg‘ulotlar asta-sekin odat tusiga kirib borishi maqsadga muvofiqdir. Ayrim o‘quvchilarning uyga berilgan vazifani tayyorlay olish hollarini ham uchratamiz. Buning sababini bir so‘z bilan tushuntirish qiyin. Lekin ko‘p hollarda uy vazifasi tayyor emasligining sababi o‘quvchining darsga bo‘lgan yomon munosabati yoki dangasaligida emas, balki vazifani oxirigacha tushunib yetmasligi, musiqa asarini o‘rganishga qanday yondashish kerakligini bilmasligidadir. Shu sababli mustaqil ishlash uchun berilayotgan vazifa o‘quvchiga batafsil tushuntirilishi, o‘quvchining imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniqlashtirilishi lozim. Ba’zi o‘quvchilar mustaqil mashg‘ulot paytida berilgan musiqa asarini boshidan oxirigacha ko‘p marotaba takrorlayveradilar. Bunda musiqa asarining ma’nosi va o‘ziga xos xususiyatlari to‘la va aniq tahlil qilinmaydi. Asar o‘quvchi oldida ijro etib bera olish uchungina yuzaki takrorlanadi.

Mustaqil shug‘ullanishdagi mashg‘ulotlarning kamchiliklaridan yana biri o‘quvchilar vazifani tayyorlash jarayonida o‘z ijrolarini nazorat qila olmasliklaridir. Masalan, musiqa asarining matnini yod olinish jarayonida biror bir nota noto‘g‘ri o‘rganiladi va buni o‘quvchining o‘zi sezmaydi. Yoki ma’lum bir ijro usuli noto‘g‘ri bajariladi va bu ham o‘quvchining nazaridan chetda qoladi. Bunday kamchilik dars paytida o‘qituvchi tamonidan bartaraf etiladi. Ijro paytida o‘zining harakatlari, tovushlarning to‘g‘riligini nazorat qilish ko‘nikmasi o‘quvchilarda o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, balki rejali ravishda olib borilgan mashg‘ulotlar evaziga erishiladi. O‘z - o‘zini nazorat qilishning ijrochi uchun ahamiyati juda katta u orqali ijrodagi kamchiliklarga barham berish mumkin.

Mustaqil mashg‘ulot qanday tuzilishi kerak va nimalardan iborat bo‘ladi? Yuqorida aytib o‘tganimizdek, mustaqil mashg‘ulot uchun berilgan vazifa qanchalik aniq, konkret bo‘lsa, o‘quvchining vazifasi shuncha osonlashadi. Mustaqil mashg‘ulot qanday kechishidan qat‘i nazar, uni ma’lum reja asosida olib borish yaxshi natija beradi. Quyida mutaqil mashg‘ulotlarning taxminiy tuzilishi va vaqtini keltiramiz:

1. Gamma, uch tovushliklar va turli mashqlarni ijro etish 10-15 daqiqa.
2. Yangi berilgan vazifani o‘zlashtirish 15-20 daqiqa.
3. Dam olish uchun 5 daqiqa.
4. Oldin o‘rganilgan vazifalarni takrorlash 20-25 daqiqa.

Keltirilgan vaqtlar me’yori taxminiy bo‘lib, uni belgilashda o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda vazifalar hajmining katta-kichikligiga qarab kamaytirish yoki aksincha ko‘paytirish mumkin. Mustaqil mashg‘ulot uchun keltirilgan taxminiy vaqtning jami 45-60 daqiqani tashkil etyapti. Bu bir qarashda kamdek ko‘rinishi mumkin. Ammo mashg‘ulotlar muntazam ravishda davom ettirilsa, ko‘zlangan natijaga bemalol erishish mumkin.

Musiqa asarini yod olishni har bir sozanda qobiliyati va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiradi. Bu borada hamma uchun yagona ko‘rsatma bo‘lishi qiyin. Ba’zi sozandalarda tekstni ko‘rib eslab qolish qobiliyati kuchliroq bo‘lsa, boshqalarida eshitib eslab qolish qobiliyati kuchli. Shu sababdan ham asarni yod olish ishida ularning metodlari turlicha bo‘ladi. Muhimi, musiqa asari qaysi bir metod bilan yod olinishidan qat’i nazar, u sozandaning yodida mustahkam o‘rnashib qolishidir.

Hozirgi paytda o‘quv yurtlaridagi o‘zlashtiriladigan ma’lumotlar miqdorining ortib borishi, kam vaqt sarf qilib ko‘proq natijaga erishishni taqozo etadi. O‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlari muvaffaqiyatli bo‘lishiga o‘qituvchi rahbarligida sinfdagi darsni shu mustaqil mashg‘ulotga yaqinlashtirib o‘tish yordam beradi. Bunda o‘quvchi barcha vazifalarni mustaqil bajaradi va o‘qituvchi kerak bo‘lgandagina o‘z ko‘rsatmalarini beradi.

O‘qituvchining mustaqil mashg‘uloti kunning qaysi vaqtiga mo‘ljallanishi kerak? Bunday mashg‘ulot vaqtini belgilash o‘quvchining kun tartibiga bog‘liq. Agar o‘quv yurtidagi mashg‘ulotlar asosan kunning birinchi yarmida bo‘lsa, mustaqil mashg‘ulot kunning ikkinchi yarmida o‘tkaziladi. Muhimi mustaqil mashg‘ulot har kuni bir vaqtda o‘tkazilishi.

Uy vazifasini bajarishning bir qator muhim tamonlari bo‘lib, bularni o‘quvchi esda tutishi zarur. Shulardan ba’zilarini ko‘rib chiqamiz: Musiqa asari o‘quvchi tomonidan avvalo to‘g‘ri

tushunilishi, ya’ni asar mohiyati to‘gri ochilishi asosiy vazifa qilib qo‘yilishi kerak. Oldin aytib o‘tilganidek, asar ma‘nosini to‘gri tushunishda ijro uslublarining tanlanishi, belgilarga rioya qilish, applikaturaning to‘g‘ri qo‘yilishi kabi masalalar muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchining mustaqil mashg‘ulotlari paytida uning diqqat-e’tibori albatta biror konkret vazifani bajarishga qaratilishi kerak. Aks holda mashg‘ulot quruq, ma’nosiz kechib, hech qanday natijaga erisha olmaslik mumkin. Ba’zi o‘quvchilar musiqa asarini o‘zlashtirish davrida nota tekstiga ko‘proq e’tibor berib, ijroning ifodali bo‘lishi kerakligini unutib qo‘yadi. Shu kamchilikning oldini olish maqsadida o‘quvchilarning diqqat markazida doimo ijroni ifodali bajarish vazifasi turishi shart. Boshqacha aytganda, o‘quvchilar asar tekstini o‘zlashtirishga qancha kuch sarf qilishsa, ijroning ifodali chiqishiga ham shuncha e’tibor berishlari kerak.

O‘quvchi biror xatoga yo‘l qo‘ygan paytda shu bo‘lakni vazmin sur’atda diqqat bilan qayta takrorlashi kerak. Shunda yo‘l qo‘yilgan xatoning sababini to‘g‘ri aniqlab, shu xatoga boshqa yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘radi. O‘quvchilar ijrosidagi xatolar ham bir-biridan farq qiladi. Ayrim holatlarning qaytarilishi o‘quvchilarda odat tusiga kirib, asarning ma’lum qismida xato deyarli har safar takrorlanaveradi. Bunga sabab noto‘g‘ri tanlangan applikatura, ijro usuli yoki boshqa bir kamchilik bo‘lishi mumkin. Bunday xatolarning kelib chiqish sababini to‘g‘ri aniqlash uni bartaraf etishning garovidir. Xatolar tasodifiy xarakterga ega bo‘lsa ham, ularga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Xatolar qanday bo‘lishidan qat’i nazar o‘quvchi o‘zining mustaqil mashg‘uloti paytida ularni bartaraf etish choralarini topishni o‘zining asosiy maqsadlaridan biri qilib qo‘yishi kerak. Cholg‘u ijrosi bilan shug‘ullanish natijasida o‘quvchi ham aqliy, ham jismoniy charchashi sababli uning dam olishiga bir oz vaqt ajratilishi kerak. Aks holda ijroning sifati yomonlashib, xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilishi mumkin.

[6] Mustaqil shug‘ullanishdagi mashg‘ulotlarning kamchiliklardan yana biri o‘quvchilar vazifani tayyorlash jarayonida o‘z ijrolarini nazorat qila olmasliklaridir. Masalan, musiqa asarining teksti yod olinishida biror nota noto‘g‘ri o‘rganiladi va buni o‘quvchining o‘zi sezmaydi. Yoki ma’lum bir ijro usuli noto‘g‘ri bajariladi va bu ham o‘quvchining nazaridan chetda qoladi. Bunday kamchilik dars paytida o‘qituvchi tomonidan bartaraf etiladi. Ijro paytida o‘zining harakatlari, tovushlarning to‘g‘riligini nazorat qilish ko‘nikmasi o‘quvchilarda o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, balki rejaravishda olib borilgan mashg‘ulotlar evaziga erishiladi. O‘z-o‘zini nazorat qilishning ijrochi uchun ahamiyati juda katta u orqali ijrodagi kamchiliklarga barham berish mumkin.

Hozirgi paytda o‘quv yurtlaridagi o‘zlashtiriladigan ma’lumotlar miqdorining ortib borishi, kam vaqt sarf qilib ko‘proq natijaga erishishni taqozo etadi. O‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlari muvaffaqiyatli bo‘lishiga o‘qituvchi rahbarligida sinfdagi darsni shu mustaqil mashg‘ulotga yaqinlashtirib o‘tish yordam beradi. Bunda o‘quvchi barcha vazifalarni mustaqil bajaradi va o‘qituvchi kerak bo‘lgandagina o‘z ko‘rsatmalarini beradi. O‘qituvchining mustaqil mashg‘uloti kunning qaysi vaqtiga mo‘ljallanishi kerak? Bunday mashg‘ulot vaqtini belgilash o‘quvchining kun tartibiga bog‘liq. Agar o‘quv yurtidagi mashg‘ulotlar asosan kunning birinchi yarmida bo‘lsa, mustaqil mashg‘ulot kunning ikkinchi yarmida o‘tkaziladi. muhimi, mustaqil mashg‘ulot har kuni bir vaqtda o‘tkazilishi.

Notaga qarab ijro etish

Notaga qarab ijro qilish murakkab jarayon bo‘lib, umaxsus mashqlar yordamida o‘zlashtiriladi. Notaga qarab ijro etish jarayonini kuzatadigan bo‘lsak, unda qo‘yidagi qismlarni ko‘rishimiz mumkin: nota ko‘rinishining o‘quvchi ongiga yetib borishi; o‘quvchi ongida qanday harakatni amalga oshirish kerakligining aniqlanishi; kerakli harakatlar yordamida berilgan notaning ijro etilishi. Notaga qarab ijro etish jarayonining qanchalik tez sodir bo‘lishi nota ko‘rinishini qabul qilib (anglab), kerakliharakatni amalga oshirish tezligiga bog‘liq. Agar jarayonining biror qismi yaxshi ishlamasa, notaga qarab ijro etishda ko‘zlangan natijaga erishish qiyin bo‘ladi.

[6] Sh.Rahimov, Sh.Yusupov, “Cholg‘u ijrochiligi” «Musiqa» nashriyotiToshkent2011

Notaga qarab ijro etishning murakkab taraflaridan biri shuki, musiqa asarining bir qismi ijro etilayotganda cholg‘uchi keyingi qismini ko‘rib, uning ijrosiga tayyorgarlik ko‘rishga tayyorlanadi.

2-MAVZU. CHOLG‘U IJROCHILIGINING O‘ZIGA XOSLIKLARI

G‘ijjak cholg‘usining tuzilishi

Endi biz g‘ijjak cholg‘u sozining boshqa sozlar singari qator qismlardan tashkil topganini ko‘rib turibmiz. Buni birma-bir qismlarga ajratib o‘rganamiz:

I. Yuqori qism (bosh qism)da to‘rt simni ushlab turish va sozlash uchun quloqlar joylashadi.

I.1. Undan pastda simlarni me`yorida ushlab turish uchun kichkina xarrakcha, yoki shayton xarrak joylashadi.

II. Dasta qismi

Simlarni barmoq bilan bosib chalinadigan qismi **dasta** deyiladi. U asosan o‘rik yoki yong‘oq daraxtidan yasaladi va kosaxonaga ulanadi. Gijjakning yuqori qismdan dastaning usti bilan kosaxonaga tegib turgan joyigacha (4-5 santimetr qolgancha) yassi, silliq grif joylashadi. Shu grifning ustidan g‘ijjak cholg‘usining to‘rtta simi kesib o‘tadi. Simlar ustida barmoqlar harakatlantirilib musiqiy ovoz hosil qilinadi.





II.1. Birinchi eng ingichka sim **“Mi”** deb nomlanadi, ikkinchi oktavaning **“Mi”** tovushi balandligini bildiradi:



II.2. Ikkinchi sim **“Lya”** deb nomlanadi birinchi oktavaning **“Lya”** tovushi balandligini bildiradi:



II.3. Uchinchi (yo‘g‘on) sim **“Re”** deb nomlanadi birinchi oktavaning **“Re”** tovushi balandligini bildiradi:



II.4. To‘rtinchi (pastki, eng yo‘g‘on) sim **“Sol”** deb nomlanadi: kichik oktavaning **sol** tovushi balandligini bildiradi:

III. Dasta va kosaxona ulangan qism. Grifning tugagan joyidan toki xarrakkacha bo‘lgan maxsus oraliqda kamon harakatlanadi.

IV. Kosaxona qismi. U aylana shaklda, g‘ovak qilib ishlangan.

IV.1. Kosaxona ustiga baliq terisi qoplanadi.

IV.2. Teri ustida to‘rt simni me`yorida ushlab turish uchun –“xarrak” joylashgan bo‘lib, uni dastaga yaqin joyda joylashtiriladi.

V. Kosaxonaning pastki qismida to‘rt simni ushlab turish uchun ilgaklar joylashtiriladi.

V.1. G‘ijjakni oyoqda ushlab turish uchun – metal moslama biriktirilgan.

Kamon (smichok)

Endi shu tartibda kamonning tuzilishi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz:



Kamonning asosiy qismi qattiq yog‘ochdan tayyorlangan bo‘lib, ingichka, uzunligi 50 smdan 70 smgacha bo‘lgan, uchi ilgak shaklida tayyorlangan qattiq yog‘och (1) ni tashkil qiladi. Yog‘ochning pastki qismi 5-7 santimetrgacha o‘yilgan bo‘lib, utski qismiga ilgich tomonga to‘g‘rilab qattiq yelim yoki juda qattiq yog‘och (2) mahsulotidan maxsus moslama o‘rnatiladi.

Bu moslama orqaga-oldingga (o‘ngga-chapga) harakatlantirishuchun kamonning pastki g‘ovak qismidan rezbalik metall (3) moslama (mexanizm) joylashadi. Kamon uchidagi yarim ilgak hamda kamonning past qismidagi yelim moslamaga otning yolidan (dumidan) tayyorlangan o‘ram (4) joylashtiriladi. Bu kamonning yoli hisoblanib, kuyning texnik holatiga qarab, pastki metal moslamada tarang va sust holatga keltiriladi. Har 4-5 soatlik mashqdan so‘ng kamon yolini kanifol yordamida oqartirib turishlik tavsiya etiladi. Endi yuqorida keltirilgan musiqiy ko‘nikmalarga tayangan holda yosh o‘quvchi bilan g‘ijjak cholg‘u sozida ijro etish sir asrorlarini o‘rganamiz:

G‘Ijjak cholg‘usida ijro etish holati

(stulda to‘g‘ri o‘tirish va kamonni to‘g‘ri ushlash)

Avvalambor o‘quvchining yoshiga va bo‘yiga mos ravishda stul tanlaymiz, chunki o‘quvchining tizzasi qiya tekis holatda bukilishi va undan g‘ijjak cholg‘usi tushib ketmaydigan holatda joylashishi shart. Shunda o‘quvchida erkin harakat qilish ko‘nikmalari hosil bo‘ladi.

G’ijjak ijrochiligida chap va o‘ng qo‘llarning ahamiyati juda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa o‘ng qo‘lda kamonni bir tekisda, to‘g’ri va erkin ushlash. Kamonni ravon harakatlantirganda – kistni chiroyli ishlatishga erishish, simdan simga ko‘chadigan holatlarda shoshilmasdan, bir tor ikkinchi torga halal bermasdan, aniq ko‘chish va yoqimli ohang talab qilinadi. Bizga kuyning toza va chiroyli yangrashini ta’minlovchi – chap qo‘l sanaladi. Chap qo‘lni g’ijjak dastasida to‘g’ri ushlash. Chap qo‘l barmoqlarini torlar ustida o‘z o‘rniga aniq va erkin bosish natijada g’ijjakdan yoqimli va

dardli ijroning yangrashini ta’minlaydi.

G‘IJJAK

Kamonli cholg‘ular o‘zbek xalq cholg‘u orkestrining asosiy guruhlaridan biri hisoblanadi. Bu guruhga g‘ijjak I,II, g‘ijjak alt, g‘ijjak-qobuz bas va g‘ijjak-qobuz kontrabaslar kiradi. Kamonli cholg‘u guruhidagi asboblarning barchasi sozi, chalinish uslublari, sadolanishi simfonik orkestri kamonli kvintetiga batamom mos keladi. Orkestrda kamonli cholg‘ular guruhi asosiy, yetakchi guruh hisoblanadi. Kamonli asboblarda turli tonlikdagi asarlarni chalish qulay, hamma dinamikani ko‘rsata oladi, unison, oktava, ko‘p ovozli, har xil passaj, virtuoz qismlarni chalish imkoniyatiga egadir.[7]

G‘ijjaklar orkestrning barcha guruhlari bilan qo‘shilganda o‘zgacha jilolanadi.

G‘ijjak I + g‘ijjak II + g‘ijjak alt
G‘ijjak I + g‘ijjak II + baslar
G‘ijjak I + g‘ijjak II + g‘ijjak alt + baslar
G‘ijjaklar guruhi + puflama asboblar
G‘ijjak I, II + chang I, II
G‘ijjaklar + rubob prima + qashqar rubob
G‘ijjak I va II unison yoki g‘ijjak alt unison zich shirali ohang beradi.
G‘ijjak alt va g‘ijjak-qobuz baslar unisoni ham yaxshi ohang hosil qiladi.



Cholg‘uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi	Eshitilishi	
G‘ijjak (I va II)	1-tor “Mi” ikkinchi oktava 2-tor “Lya” birinchi oktava 3-tor “Re” birinchi oktava 4-tor “Sol” kichik oktava	“Sol” kichik oktavadan - “Lya” 4-oktavagacha	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi

[7] Sh.Raximov, A.Lutfullayev – Cholg‘ushunoslik “Musiqa” nashriyoti Toshkent 2010. 19b.

G‘IJJAK ALT

sozi diapozoni foydalaniladigan tovush kengligi

Cholg‘uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi	Eshitilishi	
G‘ijjak-alt	1-tor “Lya” birinchi oktava 2-tor “Re” birinchi oktava 3-tor “Sol” kichik oktava 4-tor “Do” kichik oktava	“Do” kichik oktavadan - “Lya” 3-oktavagacha	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi

G‘IJJAK-QOBUS BAS

G‘ijjak alt uchun kuylar alt kalitida yoziladi. G‘ijjak alt kamonli guruhida kuy (solo) yangrayotgan vaqtda qo‘shimcha akkord yoki pedal tovushini qo‘shish samarali jo‘r ohang hosil qiladi. G‘ijjak alt past va o‘rta registrdagi garmoniyani orkestrdagi mizrobli guruhi bilan ijro qilsa, yoqimli ohang beradi.

G‘ijjak alt + g‘ijjak-qobuz bas

G‘ijjak alt + afg‘on rubob + dutorlar

G‘ijjak alt + g‘ijjak-qobuz bas + g‘ijjak-qobuz kontrabas + qashqar rubob + afg‘on rubob + dutorlar.

Ko‘p hollarda g‘ijjak-qobuz bas kontrabas bilan oktavada juftlanadi. Agar akkord 4 yoki 5 tovushdan tashkil topgan bo‘lsa, asosiy kuy g‘ijjak I, II da bas tovushlari oktava juftligida g‘ijjak-qobuz bas, g‘ijjak kontrabasda,

o‘rta tovushlar albatta g‘ijjak altda saqlanishi kerak. Ko‘pincha cho‘zimli tovushlarini bir oktavadan katta intervallik akkordlar tuzilishi akkord tovushlari bilan to‘ldiriladi. Shunday variantli akkordlar bog‘lanishini nazarda tutib, qo‘sh notalar ijrosi g‘ijjak altga topshiriladi.

G‘ijjak alt bilan g‘ijjak-qobuz baslar unisoni zich va shirali ohang hosil qiladi. Bunda g‘ijjak-qobuz baslarning tembri ustunlik qiladi. G‘ijjak I, II, g‘ijjak alt va baslarning unisoni ***f*** da kuchli va keskin, ***p*** da yugon va mungli eshitiladigan murakkab tembr hosil qiladi[8].

G‘ijjak-qobuz bas kamonli sozlar guruhiga kiradi. O‘zbek xalq cholg‘u asboblarini takomillashtirish laborotoriyasida g‘ijjak-qobuz basning xalqchillik darajasini saqlab qolishga harakat qilingan. Qobuz qaraqalpoq xalqiga mansub asbob. O‘zbekistonning ayrim xududlarida ham tarqalgan. Kamonli sozlar oilasini tashkil qilish maqsadida konstruktorlarimiz (A.I.Petrosyans, S.E.Didenko) qobuz asbobining xalqchillik darajasini saqlab qolgan holda g‘ijjak-qobuz bas sozini yaratdilar. O‘zbek xalq cholg‘ular orkestri kamonli sozlar guruhi simfonik orkestrining kamonli guruhiga ko‘p jihatlari bilan o‘xshashdir.
G‘ijjak-qobuz bas uchun kuylar bas va tenor (1 oktava “do”) kalitida yoziladi.

G‘ijjak-qobuz bas uchun kuylar bas va tenor (1 oktava «do») kalitida yoziladi.

Cholg‘uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi	Eshitilishi	
G‘ijjak-qobus bas	1-tor “Lya” kichik oktava 2-tor “Re” kichik oktava 3-tor “Sol” katta oktava 4-tor “Do” katta oktava	“Do” katta oktavadan - “Re” 3-oktavagacha	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi

G‘IJJAK-QOBUZ KONTRABAS

Simfonik orkestridagi violonchel cholg‘usi kabi sozlanadi, chalinadi va texnik imkoniyatlari ham katta. Kamon bilan chalish usullari: detache, legato, staccato, martele, spiccato, ko‘rsatkich va o‘rta barmoq bilan simni chertib (pizzicato) chalish, kamon dastasining pastki qismi bilan simga urib chalish (con lengo) usullari bor[9].

G‘ijjak-qobuz kontrabas kamonli sozlar guruhiga mansub soz bo‘lib, u eng pastki ovoz sohibi hisoblanadi. Kontrabas uchun kuylar bas kalitida yoziladi va yozilganidan bir oktava past eshitiladi.



[8] Sh.Raximov, A.Lutfullayev – Cholg‘ushunoslik “Musiqa” nashriyoti Toshkent 2010. 21b.
[9] Sh.Raximov, A.Lutfullayev – Cholg‘ushunoslik “Musiqa” nashriyoti Toshkent 2010. 22b.



Cholg‘uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi	Eshitilishi	
G‘ijjak-qobus kontrabas	1-tor “Sol” kichik oktava 2-tor “Re” kichik oktava 3-tor “Lya” katta oktava 4-tor “Mi” katta oktava	“Mi” katta oktavadan - “Lya” 2-oktavagacha	“Mi” kontr oktavadan - “Lya” 1-oktavagacha	Yozilganidan 1 oktava past eshitiladi



G‘ijjak kontrabas hajmi jihatidan katta bo‘lganligi sababli yerga qo‘yib chalinadi. Cholg‘uchi tikka turib, ijro etishi *shpil*, ya’ni qobuz-kontrabas tagiga o‘rnatilgan qoziqni bo‘yiga moslab chalinishiga tayyorlangan. G‘ijjak qobuz-kontrabas, g‘ijjakqobuz bas, dutor bas sozlari birgalikda orkestrda kuchli, baquvvat ohang kasb etadi. Bu asboblar orkestr fundamentini yaratadi va asosiy guruhlardan hisoblanadi, o‘zaro oktava oralig‘ida juftlanib, kuchli sado beradi[10].

Musiqa savodxonligi

Musiqada tovushlar ma’lum bir vaqt davomida tashkil etiladi (eshitiladi). Tovushlarning ma`lum bir vaqtlarda teng hissalarga bo‘linib, almashib turishi musiqada bir tekis harakatlarni hosil qiladi (bunday harakatga pulsatsiya ham deyiladi). Tovushlarning ana shu harakati vaqtida ayrim hissalar urg‘usi ajralib turadi. Bu urg‘ularga **aksent** (zarb) deyiladi. Aksent tushadigan hissalar **kuchli hissalar** deyiladi. Aksent tushmaydigan hissalar **kuchsiz hissalar** deyiladi[11].

Kuchli va kuchsiz hissalarning tekis almashinib turishi **metr** deyiladi. Metr hissasi xilma-xil cho‘zimlarda ifodalanishi mumkin.

Metr hissasining ma’lum bir cho‘zimda ifodalanishi **o‘lchov** deyiladi.

O‘lchovlar tovush yozuvida ikkita raqam bilan yoziladi. Bu raqamlar birin-ketin yuqoridan pastga qo‘yilgan bo‘lib, skripka kalitidan so‘ng joylashtiriladi.

Ustki raqam metrdagi teng hissalar sonini, quyi raqam esa mazkur o‘lchovdagi metr hissasining qanday cho‘zimda ifodalanganligini bildiradi.

Musiqa asarining bir kuchli hissadan ikkinchi bir kuchli hissagacha bo‘lgan oralig‘i **takt** deyiladi[12].

Tovush yozuvida har bir takt tovush yo‘lini ko‘ndalang kesib o‘tgan vertikal chiziq bilan ajratiladi. Bu vertikal chiziqqa **takt chizig‘i** deyiladi.



[10] Sh.Raximov, A.Lutfullayev – Cholg‘ushunoslik “Musiqa” nashriyoti Toshkent 2010. 23b.
[11] G‘Xudoyev – Boshlang‘ich g‘ijjak saboqlari “G‘. G‘ulom” nashriyoti Toshkent 2015. 6b.
[12] I.Akbarov. Musiqa lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1997 y., 280-b.

Takt chizig‘i, odatda, takt oldi (zatakt)ni kuchli hissadan ajratib ko‘rsatish uchun qo‘yiladi.

Agar musiqa asari kuchsiz hissadan boshlansa, asar boshida to‘liq bo‘lmagan takt hosil bo‘lib, bunga **takt oldi** (zatakt) deyiladi. Takt oldi ko‘pchilik hollarda umumiy taktning yarmidan oshmaydi.

Takt oldi musiqa asari o‘rtasida, unga istalgan bir qismi boshlanishi oldida ham bo‘lishi mumkin.

Ko‘p hollarda takt oldi bilan boshlangan asar yoki uning biror qismi to‘liq bo‘lmagan takt bilan tugallanadi va u takt oldini to‘ldiradi. Asar oxirida uning biror qismidan so‘ng ikkita takt chizig‘i qo‘yiladi. Bu asarning ma`lum bir bo‘lagi yoki asar tugaganidan dalolat beradi.

Pauzalar

Musiqa asari ijrochiligida tinish va dam olish belgilariga **pauza** deb ataladi. Pauzalar tovush cho‘zimlari singari butun, yarimtalik, choraktalik, sakkiztalik, o‘n oltitalik kabi ko‘ri-nishlarga ega bo‘lib, tovush cho‘zimlaridan farqli o‘laroq ijro etilmay, balki o‘z nomiga munosib tovush cho‘zimida dam oladi[13].

Butun pauza

Butun pauza to‘rtinchi chiziqning ostida yoziladi, *to‘rt ham* mobaynida yoki butun tovush cho‘zimida dam oladi.

Yarimtalik pauza

Yarimtalik pauza uchinchi chiziqning ustida joylashadi, *ikki ham* mobaynida yoki yarimtalik tovush cho‘zimida dam oladi.

Choraktalik pauza



Choraktalik pauza *bir ham* mobaynida yoki choraktalik tovush cho‘zimida dam oladi.

Sakkiztalik pauza



Sakkiztalik pauza *bir* yoxud *ham* ga dam oladi, yoki sakkiztalik tovush cho‘zimida dam oladi.

O‘n oltitalik pauza




O‘n oltitalik pauza o‘n oltitalik tovush cho‘zimida dam oladi.

An’anaviy ijrochilikka xos milliy bezaklar[14]

Nola - yarim ton doirasigacha bo‘lgan ohangdor tebranuvchi tovush. Musiqa ijrochiligida keng qo‘llanilgan vibrato singari, g‘ijjak sozida pardani barmoq bilan bosib muloyim va tez

Jonon ko‘rinur T.Sodiqov musiqasi



[13] G‘Xudoyev – Boshlang‘ich g‘ijjak saboqlari “G‘. G‘ulom” nashriyoti Toshkent 2015. 6b.

[14] G‘Xudoyev - G‘ijjak saboqlari (II-kitob) “G‘. G‘ulom” nashriyoti Toshkent 2016. 18b.

qimirlatish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Nolaning belgisi nota yozuvida to‘lqinsimon chiziq bilan ifodalanadi.



Ustozlar nolaning ijro etilishiga qisqa nola va uzun nola[15] yoki kechikkan nola, vaqtliroq tugagan nola va nolaning davom ettirilishi kabi turlicha nomlaganlar.

Qisqa nola - bunda ma’lum tovush ustiga qisqa to‘lqinsimon belgi qo‘yiladi. Nolaga uchragan tovushni ijro qilayotganda ohangning xususiyati va cho‘zimiga qarab qisqaroq nola ijro etiladi. Bu nota yozuvida quyidagicha belgilanadi.



Uzun nola - bunda ma’lum tovush ustiga uzunrroq to‘qinsimon belgi qo‘yiladi. Mazkur nolaga uchragan tovushni ijro qilayoganda ohangning va albatta cho‘zimiga qarab uzunroq nola ijro etiladi.



Mazkur keltirayotgan mashqimizda uzun va qisqa nolalar uyushib kelmoqda.



Erkin nola - bunda ijrochi nola cho‘zimining qaysi hissasida ushbu nolani erkin tarzda ifoda etishi kuyning xarakteridan kelib chiqqan nola amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.



Vaqtliroq tigagan nola – bu turdagi nolaning ijra etilishi tamom bo‘lishidan avval to‘xtatiladi. Yozuvda nola belgisi to‘g‘ri chiziq bilan yakunlanadi.



Nolaning davom ettirilishi – punktr chizg‘i bilan ko‘rsatiladi[16].



Rez

So‘ngi paytlarda ustoz sozandalar tomonidan an’anaviy g‘ijjak ijrochiligiga xos bo‘lmagan rez usuli amaliyotda qo‘llanila boshlandi. Bunday ijro usulining yuzaga kelishi shiddat bilan rivoj topib kelayotgan zamonaviy musiqaning ta’sirida ko‘rinadi.

Rez - g‘ijjakda kamonning eng uchki qismida o‘ng qo‘lni tez va ravon harakati orqali amalga oshiriladi. Asosan bunday ijro yo‘sinini sozanda o‘z xohishiga ko‘ra, kuyning turli qismlarida ishlatishi mumkin, ba’zida kuylarning dinamik rivoji va avj nuqtalarida qo‘llaydi. Bundan tashqari oddiy bezak sifatida ham ishlatilishi mumkin.



Molish

Molish bezagi tovush yuqorisiga ko‘rsatgich chiziqlar (↑↓) qo‘yish bilan belgilanadi.

↑–

[15] O‘zbekiston xalq artisti, mohir kamon ustasi O‘lmas Rasulovning an’anaviy g‘ijjak ijrochiligi uslublariga tayanildi.

[16] M. Noshmuhamedov. G‘ijjakda an’anaviy ijrochikni o‘zlashtirish. – T., 1999. 9-b.

Molish ijro etilishiga qarab ikki xil bo‘ladi: mazkur molish belgisi tovushni ohang xususiyatidan kelib chiqib chorak ton atrofida yuqoriga tomon ko‘tarilishini ifodalaydi.



— mazkur molish belgisi tovushni ohang xususiyatidan kelib chiqib chorak ton atrofida pastga tomon tushurilishini ifodalaydi.



Forshlag – (nemischa “vorshlag” so‘zidan olingan bo‘lib “oldindan”, “bosim oldidan urish”[17] ma’nolarini anglatadi) an’anaviy ijrochilikka xos ijro bezagi bo‘lib, bunda aksariyat forshlaklar tovush oldidan, ya’ni mazkur tovush cho‘zimi hisobidan ijro etilib, an’anaviy ijroda o‘ziga xos nola va qochirimni ifodalaydi.



Kashish

Bu an’anaviy bezagini ijro etishda 1- yoki 2- barmoq g‘ijjak torining muqim pardasiga qattiq bosilib, uni asta-sekin glissando usuli yordamida tovush pasayish tomonga qarab bosim kuchi kamaytirilib boriladi, natijada ijroda chuqur ta’sirchanlik, qalb dardi ifodalanadi. Kashish yozilishda, tovushning ustiga yoki ostiga yoysimon chiziqcha qo‘yish bilan belgilanadi.



Mordent – (italyancha “mordente” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘tkir”, “uchi o‘tkir”[18] ma’nolarini anglatadi) mazkur ijro bezagida muqim joylashgan bir tovushni uchga bo‘lib ijro etish, ya’ni, mazkur asosiy tovush, bir pog‘ona yuqori yoki pastdagi va yana asosiy tovushga qaytish. Qaysi tovushning yuqorisiga mordent belgisi qo‘yilsa, mazkur tovush o‘z hisobi doirasidan chiqmagan holda uchga bo‘linib ijro etiladi. Yozuvda tovushning ustiga **W** belgisini qo‘yish bilan farqlanadi:

Titratma

Bu usul ijrochiligida keng qo‘llaniladigan trel (tr)ning bir ko‘rininshi bo‘lib, an’anaviy g‘ijjak ijrochiligida birinchi barmoq muqim parda ustida joylashib, ikkinchi yoki uchinchi barmoq bilan yonma-yon joylashgan tovushni tezkorlik bilan bir necha marta bosib yuborish natijasida sayroqi ovoz chiqarish orqali amalga oshiriladi.

[17] I.Akbarov. Musiqa lug‘ati – T.: O‘qituvchi, 1997, 327-b.
[18] I.Akbarov. Musiqa lug‘ati – T.: O‘qituvchi, 1997, 176-b.



Dinamik belgilar

Musiqa asarini ijro etishda tovush kuchini o‘zgartirish, uning badiiy ijrosiga erishish maqsadida foydalaniladigan turli ishora va ko‘rsatmalarga **dinamik tuslar** deb ataladi.

p (*piano*) - mayin, kuchsiz, yumshoq
pp (*pianissimo*)- juda mayin, juda kuchsiz
mp (*messo piano*)- kuchsizroq(*pianodan kuchli, forte*dan kuchsizroq)
f (*forte*)- qattiq, kuchli
ff (*fortissimo*)- juda qattiq, juda kuchli
mf *(messo forte)*- qattiqroq, kuchliroq
cr *(kreshchendo)*-tovushni tobora kuchaytirib borish
dim *(diminuendo)*- tovushni tobora kuchsizlantirib borish
sf *(sfortsando)*-ayrim tovushlarni to‘satdan kuchli ijro etish.

Temp

Musiqa asarining ijro etilish sur`atiga **temp** deb ataladi. Templar asosan uch xil ko‘rinishda bo‘ladi: og‘ir templar, o‘rtacha templar va tez templar.

Og‘ir templar

Largo (largo) - juda vazmin, juda cho‘zib
Lento (lento) - vazmin, cho‘zib
Adajio (adajio) - og‘ir
Grave (grave) - juda og‘ir

O‘rtacha templar *Andante*
(andante) - shoshilmasdan, o‘rtacha og‘ir *Moderato* (moderato) -
o‘rtacha tez
Sotsenuto (sotsenuto) - salobatli *Allegretto*
(allegretto) - jonlanib

Tez templar

Allegro (allegro) - tez
Vivo (vivo) - jonli, chaqqon
Vivace (vivache) - jadal
Pretso (pretso) - tez, oshiqib

Mashqlar[19] va etyudlar

Do majorda mashq



Lya minorda mashq



[19] Mashqlarni tuzishda N.V.Baklanovaning “Первые уроки пособие начального обучения игре на скрипке”. – М.; Советский композитор, 1989. nashridan foydalanildi.

Sol majorda mashq



Re majorda mashq



Lya majorda mashq



Turli pozitsiyalarga o‘tish mashq[20]lari



[20] Pozitsiyalarga o‘tish mashqlari N.V.Baklanovaning “Первые уроки пособие начального обучения игре на скрипке” (– M.;Советский композитор, 1989.) hamda M.Toshmuhamedovning “G‘ijjak darsligi” (T.: O‘qituvchi,1995.) nashrlaridan foydalanildi.


Andante
mf


Andante
mf

ETYUDLAR

1-etyud

O.Xolmuhamedov



2-etyud

J.Usmonov



3-etyud

I.Reyder



4-etyud

N.Baklanova



5-etyud

I.Reyder



6-etyud

O.Xolmuhamedov



7-etyud

O.Xolmuhamedov



8-etyud

N.Baklanova



9-etyud

G‘.Qo‘chqorov



10-etyud

J.Usmonov



11-etyud

J.Usmonov



12-etyud

F.Volfart



13-etyud

O.Xolmuhamedov



14-etyud

G.Kayzer





15-etyud

G.Kayzer



16-etyud

G.Kayzer



AMALIY QISM
Yakka ijro etish uchun asarlar majmuasi
Shaxlo



YANGI TANOVAR

Jadal

M. Mirzayev musiqasi



Asta - asta

Orif Atoyev musiqasi

Sadritdin Gulov g'ijjak uchin moslashtirgan



Ey gul

Allegro moderato

M.Mirzayev musiqasi



Samoi Dugoh

Dugoh maqomidan

Shoshilmasdan



Muhabbat Manzili

Orif Atoyev musiqasi
Sadritdin Gulov g`ijjak uchun moslashtirgan

Jonliroq



Saboh 1

O`zbek xalq musiqasi

Moderato



Go`zal


Moderato ♩=80
Sadriddin Gulov musiqasi
Cholg`u ansambli
mf
G`ig`g`ak solo
p
Cholg`u ansambli
mf
G`ig`g`ak solo
mf
Cholg`u ansambli


G`ig`g`ak solo
f
Cholg`u ansambli
mf
G`ig`g`ak solo
f

Xumorim

Sadritdin Gulov musiqasi



DILXIROJ

O'zbek xalq kuyi

Quvnoq




8va
p
p
mf
f

Nihol

Sadriddin Gulov musiqasi




f
mf
dim.

Бухорча

Ахмад Хайдаров



Ishq dardi


Shoshilmasdan M.M. ♪=300
Sadritdin Gulov musiqasi
Ansambl
f
mp
G`ijjak
mf
Ansambl
f
mp
G`ijjak
mf
mp
mf

SEGOH MAQOMIDAN "GARDUN"



Qari navo

Marsh sur`atida

O`zbek xalq kuyi



Dilbaro


O`rtacha tez ♩.=63
Sadritdin Gulov musiqasi
1-xona
G`ijjak
mf
2-xona
3-xona
f
mf
1-xona (takror)
Sho`x, quvnoq ♩.=105
f

Gulbahor

Moderato ♩ = 100

O`zbek xalq kuyi



Rajabiy

O'zbek xalq kuyi




50
1.
2.
55
60
65
1.
2.
70
75
81
86
92
97
1.
2.

Aliqambar

Allegretto ♩ = 100

Xorazm xalq kuyi




p
f

USMONIYA

O'rtacha tez

Xalq kuyi




91
1.
2.
100
109
118
126
135
1.
2.

BUZRUK MAQOMIDAN
"MUXAMMASI NASRULLOI"

M.M ♩ = 60=63

1 xona




51
56
61
3 xona
66
71
76
81
Bozgo'y
86
91
95
1.
2.
atacca

VATAN

Marcia ♩ = 120

T.Sodiqov




91
101
111
f
121
132
142
f
152
158
ff

MIRZADAVLAT




37
42
f
46
p
f
50
p
54
p
58
f
62
p
f
67
71
1.
2.
rit.

BEKSULTON

O'rtacha tez

O‘zbek xalq kuyi




19
mf
f
22
25
28
31
34
mp
37
8va
40
(8)
mp


43
(8)
f
46
(8)
mp
49
(8)
52
(8)
55
(8)
58
61

GULUZORIM

Hoji Abdulaziz Abdurasulov musiqasi.




tr
tr
tr
f
p
mf
mf
tr


tr
mf
mf


f
mf
tr
tr
rit.

KOMPOZITORLIK IJODIYOTI NAMUNALARI

Fortepiano jo‘rligida ijro etiladigan asarlar

FARG'ONACHA

(O'zbek xalq kuyi)

A.Odilov qayta ishlagan.
S.Usmonov qashqar rubobiga moslagan




mf


mp


f
mf



MELODRAMA
мелодрама

Axmad Xaydarov




rit.
rit.
Allegro ♩=120
Allegro ♩=120
p cresc.
p cresc.
f cresc.
f cresc.
ff cresc.
ff cresc.


fff
fff
1.
dim.
1.
dim.
rit.
Tempo primo ♩=52
rit.
2.
dim.
p
pp
rit.
Tempo primo ♩=52
rit.
2.
dim.
p
pp

САЙРИ ЛОЛА

Шўх ***О.Назаров*** **мусиқаси**




p cresc.
p cresc.
mp
mp
Meno mosso
mf
mf
pp
pp

ISTIQLOL

Sadriddin Gulov

Allegro maestoso ♩ = 180







Dilxumor

Axmad Xaydarov




1.
2.
Allegretto ♪=320
1.
2.
Allegretto ♪=320
mf
mf


Allegro ♩=96
Allegro ♩=96
f
f


1.
2.
1.
2.

Xayol

Moderato dolce ♩ = 115

Sadritdin Gulov musiqasi
Sh.Nematov jo`rnavozligini yozgan




p
cresc.


f cresc.
f


f
dim.
mf




p
p


poco a poco rit.
pp
poco a poco rit.
pp

POLYOT SHMELYA

"Shoh Saltan ertagi" operasidan

Allegro vivace **N.Rimskiy - Korsakov**




17
21
(ponticello)
mf
mf
25
(ordinario)
(ponticello)
29
cresc.
p
mf
p
p


33
p
pp
37
cresc.
f
mf
41
mp
ff
mf
p
45
pp
arco
pp


pizz.
50
55
(vibrato)
arco
cresc.
59
mf
p
mf
p
63


67
cresc.
cresc.
71
75
f
78
82
1.


87
2.
f
p
91
(ponticello)
f
p
96
+
f
99
5
pizz.
p
p

Yoshlik qo'shig'i

M. Ashrafiy musiqasi,
g'ijjak uchun J.Usmonov
moslashtirgan.






f
p


p
rall.

Скерцо

Allegro moderato

Ф.Мирусмонов мусиқаси,
ғижжак учун Ж.Усмонов
мослаштирган




f
p
p


mf
mf
f


mf-p
mf


f-p
mf
f
ff


Largo [Медленно]
rall.
V.Monti
cresc.
cresc.
molto rall.


poco rall.
a tempo
rall. molto
Allegro vivace [Быстро, живо]
p l'accompagnement tres sec


cresc. molto
cresc. molto
p
pp
cresc. molto
cresc. molto


Meno mosso [Немного медленнее]
grazioso mf
molto rall.
Meno quasi lento
con sord.



molto rall.



Allegro vivace [Быстро, живо]






poco rall.
p
cresc.
p
cresc.
Allegretto [Подвижно]
f
f
p
cresc. e rall. poco
cresc.


a tempo piu
a poco
presto
Molto più vivo [Очень живо]
string. sempre

NAZORAT SAVOLLARI

№1 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 1; Qiyinlik darajasi – 1;

O‘zbek xalqining boy musiqa madaniyati cholg‘u san’ati nechanchi asrdan taraqqiy etishni boshlagan?

*9–10 - asr
6–7- asr
19–20 - asr
20–21- asr

№2 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 1; Qiyinlik darajasi – 1;

Al – Farobiy musiqa haqidagi risolasida shunday deb yozgan: Kishi ovoziga yaqin tovush chiqaradigan cholg‘u asboblari qaysi birlari?

*Nay, surnay
Doira, nog‘ora
Klarnet, truba
Doira,

№3 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 1; Qiyinlik darajasi – 1;

Ilgari paytda ham rubobning tori beshta bo‘lgan. Uning to‘rta tori nimadan bo‘lgan? beshinchisi - chi?

*Ipakli, kumush simli
Simdan
Ichandan
Misdan

№4 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 1; Qiyinlik darajasi – 2;

Toshkentda o‘zbek xalq cholg‘u asboblari ansambli nechanchi yil tuzilgan?

*1935 - yil
1924 - yil
1950 - yil
1955 - yil

№5 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinlik darajasi – 3;

Moskvada o‘zbek san’ati va adabiyoti dekadasi nechanchi yil o‘tkazilgan?

*1937- yil
1930 - yil
1945 - yil
1951 - yil

№6 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinlik darajasi – 2;

Shu dekadada o‘zbek xalq cholg‘u asboblari ansambli ishtirok etdi. Shu ansamblga kim rahbarlik qilgan?

*T.Jalilov
Y.Rajabiy
M.Mirzayev
M.Burxonov

№7 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinlik darajasi – 1;

Laboratoriyada barcha o‘zbek xalq cholg‘u asboblari qatori rubob ham yanada takomillashtirildi. Laboratoriyada cholg‘u sozlarining nimalariga ahamiyat beriladi?

*Pardalari siljitilmaydigan, latundan qilindi.
Pardalari qo‘lda bog‘landi
Pardalari umuman olib tashlandi
Pardalari yana qayta qo‘yildi

№8 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinlik darajasi – 1;

Rubobni to‘g‘ri ushlash va ijro etishda nimalarga ahamiyat berishi kerak?

*O‘ng qo‘lning bilagi orasida qattiq siqmasdan ushlash

O‘ng qo‘lning bilagi orasida qatitiq siqib ushlash
Rubobda yakka ijro etganda stulga suyanib o‘tirishi kerak
O‘ng qrlning bilagi bilan ushlash lozim

№9 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinlik darajasi – 2;

Rubob torlarini chertib ovoz chiqarish uchun nimalardan foydalanilgan?

*Ebonit mediatoridan
Taroqdan ishlangan mediator
yog‘ochdan ishlangan mediator
Simdan ishlangan mediator

№10 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinlik darajasi – 1;

Rubobda ijro etilgan notalar qaysi kalitda yoziladi?

*Skripka kalitida
Bas kalitida tenor kalitida
Tenor kalitida
Alt kalitida

№11 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinlik darajasi – 1;

Bir xil nomli tovushlar oralig‘idagi eng yaqin masofaga nima deb ataladi?

*Oktava
Tovush oralig‘i
Sekunda
Tertsiya

№12 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinlik darajasi – 1;

Transponirovka haqida nimani bilasiz?

*Ijro qilingan payitda tovushlari nota yozuvidagiga qrqgqndq past yoki baland eshitiladigan cholg‘u asbob transpanirovka qilinuvchi asbob deyiladi
Qanday yozilsa shunday chalinadi
Bir ton ko‘tarib chalinadi
Uch ton ko‘tarib chalinadi

№13 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinlik darajasi – 2;

Besh yondosh chiziqni tik kesib o‘tgan chiziq nima?

*Takt chizig‘i deyiladi
Yuqoridagi chiziqlarga qo‘yiladi
Uchinchi chiziqdan boshlanib chiziladi
Pauza deyiladi

№14 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinlik darajasi – 2;

Nota yozuvida tovushlarni yuqoriga yoki pastkga o‘zgartiruvchi belgini aytib Bering

*Alteratsiya belgilari
Pauzalar
Volta
Forshlag

№15 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinlik darajasi – 2;

Musiqa asarida ayrim qismlarini takroriy ijro qilish uchun belgi ishlatiladi. Ularning nomlarini toping.

*Repriza, segno
Ligata
Vivachi
Allegro

№16 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinlik darajasi – 2;

Chap qo‘l barmoqlarining rubob pardalariga bosilish holatini nima deymiz?

*Pozitsiya
O‘ng qrlda rubobni mediator bilan chalish
2 - barmoq bilan boshlab chalish

4 - barmoq bilan bosib chalish

№17 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 3; Qiyinlik darajasi –12;

Interval va uning turlarini ayting?

*Interval, melodik interval, garmonik interval

Sof interval

Kamaytirilgan interval

Kichik interval

№18 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 3; Qiyinlik darajasi – 2;

Dinamik ishoralar belgilariga e’tibor bering

*Forta (kuchli)

Tez

Al’teratsiya

Jonli

№19 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 3; Qiyinlik darajasi – 2;

Tovush cho‘zishni oshirish uchun bir xil balandlikdagi yonma-yon tovushlarni birlashtirish uchun qo‘yiladi, u chiziqni nomi nima?

*Liga

Stakkato

Spikkato

Ligato

№20 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 3; Qiyinlik darajasi – 1;

Sur’at (temp) turlari va ularning yozilishini aytib bering.

*Adajio

Pianissimo

Fortepssimo

Moderato

№21 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinlik darajasi – 2;

Ijro etish xarakterini belgilovchi belgilarni ayting?

*Dinamik ishoralar (tuslar)

Kontabilos

Prsate

Rita

№22 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 3; Qiyinlik darajasi – 3;

Qashqar rubobida zarb (shtrix)lar ularni ijro etish haqida aytib bering

*Yakka zarb, qo‘sh zarb

Moya-to

Bir oz jonlanib

Bir oz sekinlashib

№23 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 3; Qiyinlik darajasi – 1;

Musiqa asarida tovushning kuchli hissasi zarbini kuchsiz hissaga ko‘chirishni nima deymiz?

*Sinkopa

Notani rez bilan ijro etish

Notani qisqa ushlab chalish

Stakkato

№24 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinlik darajasi – 2;

Melizm kuy yoki ashulani nola (qochirim)li ijro etishdagi usullarini umumiy nomlari

*Melizm

Noxuning yuqoriga yo‘naltirilgan zarbi

Arpedjio

Sinkopa

№25 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinlik darajasi – 2;

Asosiy tovushning keyingi tovushi bilan tez almashilinib turishi natijasida paydo bo‘lgan bildiratma tovushni nima deymiz?

*Trel
Mordent
Detashe
Triol

№26 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinlik darajasi – 2;

O‘ng qo‘lning davomi tremolasida va chap qo‘lning rubob pardalarida yuqoridan pastga yoki pastdan yuqori tomon, bir paytdan bir necha notada yoki bir akkorddan boshqa akkordga tez sirg‘anib o‘tish usulini nima deymiz?

*Glisando
Animato (jonli)
Kantabile (musiqa)
Arpedjio

№27 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 4; Qiyinlik darajasi – 2;

